



TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLIGIYALARNING QO'LLANISHI: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

ORCID: 0009-0003-6868-1770

zaynutdinovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehmondo'stlik sanoatidagi innovatsion texnologiyalar va ularning turizmni rivojlantirishdagi roli baholangan. Tadqiqot jarayonida xalqaro tajriba tahlil etilgan va innovatsion texnologiyalarni mamlakatimizda tadbiq etish hamda istiqbolli yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, turizmdagi innovatsion texnologiyalar yordamida turistik tashkilotlarning xizmatlar sifatini oshirish va turistlarni jalb qilis strategiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat turizmi, turistik resurslar, innovatsiya, texnologiya, xizmatlar, IT, IoT AR/VR voqelik.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Сохибова Муслимахон

Научно-исследовательский институт развития туризма

Аннотация. В данной статье оцениваются инновационные технологии в индустрии гостеприимства и их роль в развитии туризма. В ходе исследования был проанализирован международный опыт, разработаны возможности применения инновационных технологий в нашей стране и перспективные направления. Также предусмотрено повышение качества услуг туристических организаций и разработка стратегий привлечения туристов с помощью инновационных технологий в туризме.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, туристские ресурсы, инновации, технологии, услуги, IT, IoT, AR/VR реальность.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TOURISM DEVELOPMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PROSPECTIVE DIRECTIONS

Sokhibova Muslimakhon

Research institute of Tourism development

Abstract. This article discusses innovative technologies in tourism. It also analyzes international experience, and the application of innovative technologies in our country. The improvement of the quality of services of tourist organizations and the development of tourist attraction strategies with the help of innovative technologies in tourism is also provided.

Key words: tourism, ziyarah tourism, tourist resources, innovation, technology, services, IT, IoT, AR/VR reality.

Kirish.

Bugungi kunda turizm zamonaviy dunyoning muhim global ijtimoiy-iqtisodiy hodisasi sifatida ifodalanadi. Tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligiga qaramay, turizm industriyasi an'anaviy rivojlanishdan tashqari, raqobat bozorida ustunlikka erishish uchun innovatsiyalarni keng joriy eta olishi lozim.

Turizmدا innovatsiyalar – yangi turistik marshrutlar, loyihalar va turlarni ilmiy va texnologik yutuqlar, IT texnologiyalar, shuningdek, boshqaruv va marketing sohalaridagi yetakchi tajribalardan foydalanish orqali tashkil etish, shu orqali mahalliy aholini band qilish, daromadlar oshishini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni tezlashtirish hamda mintaqa va mamlakatning turistik imidjini yaxshilashga imkon beruvchi omillar tushuniladi.

O'zbekiston katta turistik salohiyatga ega. Mamlakatimizda 8,4 mingga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar: Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqandda joylashgan (Bekmuradova, 2024). Bundan tashqari yurtimizning boy tarixi, madaniyati, milliy urf-odat va an'analari, iqlimi, tabiiy manzaralari turistlarni jalb qila oladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham turizm sohasiga innovatsiyalarning joriy etilayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilning dekabr oyidan respublikada xalqaro turistlar uchun elektron vizalar berish jarayoni boshlandi. Ko'plab turistik obyektlar, mehmonxona va turar joylarda dastlabki to'lov tizimlari yangilandi va onlayn to'lov imkoniyatlari yaratildi. Ushbu misollar turizmdagi innovatsiyalarning bir qismigina bo'lib, mazkur sohani rivojlantirish mamlakatning turistik imidjini yaxshilash, turistik oqimni ko'paytirish, sayyohlar uchun yangi tajriba yaratishda katta rol o'ynaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsiya iqtisodiy termin sifatida bir qator olimlarning tadqiqotlarida tahlil qilingan bo'lib, globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining keskin rivojlanish davrida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Joseph Schumpeter (2013) "Kapitalizm, sotsializm va demokratiya" asarida innovatsiyalarni iqtisodiyotning "yangi dastaklari" sifatida tadqiq etgan. Romer (1990) esa "Endogen texnologik o'zgarishlar" nomli tadqiqotida "endogen innovatsiyalar" konseptini ishlab chiqqan va ularning iqtisodiy o'sishning asosiy faktorlaridan biri sifatida ochib bergan.

Aynan turizmdagi innovatsiyalarga oid tadqiqotlar ham ilmiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. Xususan, D. Buhalis, C. Costa "Turizm menejmenti dinamikasi: tendensiya, menejment va instrumentlar" asarida e-turizm konsepsiyasini ochib bergan. Sheldon (2020) "O'zgarishlar uchun turizm tajribasini loyihalash" nomli tadqiqotida ekologik turizm, turizm madaniyati va ijtimoiy turizm sohasidagi innovatsiyalar mavzusini ochib bergan.

Mahalliy olimva tadqiqotchilar ham turizmning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyatiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, Tuxliyevning (2023) bir qator tadqiqotlarida turizmni O'zbekistonda rivojlantirish modellari va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Bundan tashqari, Astanakulovning (2024) "Turizm 4.0: turizm industriyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" nomli tadqiqotida turizmدا raqamlashtirish, avtomatlashtirish va robotizatsiya masalalarini ochib bergan.

Ammo olib borilgan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ko'p ilmiy adabiyotlarda innovatsiyalarga umumiy yondashiladi va iqtisodiy sektorning xususiyatidan kelib chiqib har biriga alohida yechim taklif qilinmagan. Shuning uchun aynan turizmدا qo'llanilishi lozim bo'lgan innovatsiyalarni alohida tadqiq qilish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida innovatsiyalar va ularning bugungi kundagi o'rni, innovatsiyalarning turizmدا qo'llanilishi, shuningdek, mamlakatimizda turizmga oid ayrim statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda, tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o'ndan ortiq milliy va xorijiy

adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o'rganib chiqildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning rolini tadqiq qilish nazariy jihatdan tadqiqotchilarning e'tiborini qaratadi. Sababi, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion jamiyat konsepsiyasi iqtisodiy rivolanish to'g'risidagi ilmiy tushunchalarni tubdan o'zgartirib yubordi. Innovatsiyalarning kengayishi, ularning inson hayotining barcha jabhalarida tadbiiq qilinishi turizm sohasidagi menejmentning yangi ko'rishga o'tishini taqozo etdi.

Bundan tashqari, tizimli, kompleks, texnologik yondashuvni amalga oshirish turizmga innovatsion faoliyatning asosiy talabi hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion rivojlanish xususiyatlarini o'rganis muhim ahamiyat kasb etadi (Astanakulov, 2023).

Innovatsion texnologiyalar sayohat jarayonini nafaqat sayyohlar, balki turizmning barcha ishtirokchilari uchun soddalashtiradi. Bu esa mamlakatga turistlar oqimining ko'payishiga turtki bo'la oladi. Biroq, innovatsion texnologiyalarning turizm oqimiga ta'sirini baholashda ko'plab omillar, xususan, texnologiyalarning mavjudligi, sayyohlar ehtiyoji va tashrifdan maqsadi, turistik yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olinishi jihatidan murakkab bo'lishi mumkin.

1-rasmda 2016-2023-yillar kesimida xalqaro turistik tashriflar soni keltirilgan. Rasmda ko'rinib turibdiki, 2016-2019-yillar kesimida xalqaro tashriflar soni xalqaro turistik bozorda barqaror o'sib borgan va 2019-yilda eng yirik ko'rsatkichga yetgan va 1462,27 million kishini tashkil etgan. Ammo, 2020-yilda butun dunyoda kuzatilgan COVID-19 pandemiyasi sababli turistik tashriflar soni qariyb 72 foizga kamaydi. 2021-yilda tashriflar soni 12 foizga ko'paygan bo'lsa-da, pandemiyagacha bo'lgan davrga nisbatan qariyb 3 barobar kam ko'rsatkichni qayd etdi. 2022-yilda mamlakat va mintaqalararo pandemiya sababli yuzaga kelgan sanitariya-epidimiologik talablar asta-sekin kamayib borishi natijasida turistik oqim hajmi ham oshdi va 960,19 millionni tashkil etdi. 2023-yilda bu ko'rsatkich 1285,66 millionni tashkil etgan bo'lsa-da, 2019-yilga nisbatan 12 foiz kamligicha qoldi.




1-rasm. 2016-2023-yillar kesimida xalqaro turistik tashriflar soni (million kishi)⁹⁷

Pandemiya butun dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 2-rasmda 2016-2023-yillar kesimida O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni keltirib


⁹⁷ <https://www.statista.com/statistics/209334/total-number-of-international-tourist-arrivals/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

o'tilgan. 2019-yilda jami turistlar soni 6748,5 mingdan ziyod kishini tashkil qilgan, 2020-yilda esa bu ko'rsatkich pandemiya sababli 77,7 % ga kamaygan. 2021-yilda O'zbekistonga jami 1881,3 ming nafar turistlar tashrif buyurdi, bu esa 2019-yildagidan 3,5 barobar kichik ko'rsatkich edi. Ammo, pandemiya tufayli vujudga kelgan cheklovlar qisqargach, mamlakatga turistlar oqimi yana ko'paya boshladi. 2023-yilda tashrif buyurgan sayyohlar soni 6,6 milliondan oshdi va pandemiyagacha bo'lgan holatni 98,2 % ga tikladi.



2-rasm. 2016-2023-yillar kesimida O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni (ming kishi)⁹⁸

Mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarning kelib chiqish geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, turistlarning katta qismi qo'shni mamlakatlarga to'g'ri kelishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. 2022-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarni davlatlar kesimida ulushini tahlil qiladigan bo'lsak (3-rasm), 83,4 % sayyoh qo'shni davlatlardan kelayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qolgan 11,6 % turist qolgan MDH mamlakatlaridan va yana 5 % sayyohlar uzoq xorijdan tashrif buyurgan.



3-rasm. 2022-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar (davlatlar kesimida)⁹⁹

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekistonga xorijdan tashrif buyurgan shaxs elektron vizani rasmiylashtirishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizga 90 dan ortiq mamlakat fuqarolari vizasiz tartibda tashrif buyurishlari mumkin¹⁰⁰. Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar va tenglik asosida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) ishtirokchilari uchun ikki tomonlama vizasiz rejim joriy etilgan, xususan: Ozarbayjon, Gruzziya, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, va Tojikiston (Astanakulov, 2023).

Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo'lsak, turizmni rivojlantirish uchun keng qo'llaniladigan bir qancha innovatsion texnologiyalarga guvoh bo'lishimiz mumkin (1-jadval). Mazkur texnologiyalar sayyohlarga keng imkoniyat va qulayliklarni yaratibgina qolmay, turdan yaxshi taassurot olishlarini ham ta'minlaydi.

Turizm yaxshi rivojlangan mamlakatlardan biri Fransiyada ham bir qator innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, Shahar va muzeylar, restoranlar, transport xizmatlarini topishga yordam beruvchi mobil ilovalar va veb-saytlar, san'at galereyalari va muzeylarda AR/VR texnologiyalari, IoT (Internet of Things), xavfsiz omonat tizimi, gastronomik turizm platformalari mavjud (Cró, 2020).

1-jadval


Xalqaro tajribada turizmni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar¹⁰¹

No	Innovatsion texnologiya	Qo'llanilishi
1	Xavfsizlik va omonat tizimi	Sayyohlarga qulay va ishonchli omonat tizimlarini taqdim etuvchi texnologiyalar, ular moliyaviy ma'lumotlarni himoya qilish, to'lov jarayonlarini soddalashtirish va global to'lov tizimiga integratsiyani ta'minlay oladi
2	Turistik harakatlar monitoringi va tahlili	Bunda sayyohlar va turistik agentliklar tomonidan to'plangan ma'lumotlar uzluksiz monitoring va analiz qilinadi, natijada mavjud tendensita aniqlash va qarorlar qabul qilishda to'g'ri yo'nalish imkoniyati yuzaga keladi
3	Mahalliy axborot tizimi va interaktiv qidiruv	Xorijiy turistlarga mahalliy qidiruv tizimini taqdim etish, restoranlar, turistik manzillar, joylashtirish vositalari va boshqa turistik resurslarning ro'yxatlarini taqdim etish, Shahar va mamlakat haqida interaktiv ma'lumotlar berish uchun mobil ilovalar va veb-saytlar ishlab chiqiladi
4	Virtual voqelik	Virtual va qo'shimcha voqelik texnologiyalari sayyohlarda takrorlanmas turistik tassurotni shakllantirishga yordam beradi
5	Ijtimoiy tarmoqlar	Ijtimoiy tarmoqlar va media olami turizmga oid kontentlar, sayyohlar uchun qiziqarli manzillar haqida batafsil ma'lumot yetkazib berishda xizmat qiladi, bundan tashqaro turistlar o'zaro fikr almashishi uchun platforma vazifasini bajaradi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin (4-rasm):

¹⁰⁰ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-viza-rejimining-soddalashtirilishi-turizm-sohasi-oldida-misli-korilmagan-imkoniyatlarni-ochdi>

¹⁰¹ Muallif ishlanmasi



4-rasm. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan innovatsion texnologiyalar¹⁰²

1. Mobil ilovalar – sayyohlar uchun mobil ilovalar yaratish orqali sayohat marshrutlari, shaharning xaritasi, turistik manzillar va bir qator turistik xizmatlarni taqdim etish mumkin.

2. VR/AR voqelik – bunday yuqori texnologiyali innovatsiyalarni sohaga joriy qilish orqali turistik manzillarning imidjini oshirish, sayyohlarni qo'shimcha jalb qilishga erishish mumkin.

3. IoT (Internet of Things) – mazkur texnologiyalar orqali mehmonxona va joylashtirish manzillari, xizmat ko'rsatish obyektlari faoliyatini avtomatlashtirish, sayyohlarni qo'llab-quvvatlash va maxsus xizmatlarni taklif qilish mumkin.

4. Ma'lumotlar monitoring va tahlili – sayyohlar haqida to'liq ma'lumot to'plash, tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu ma'lumotlar asosida sayyohlarning talablari va sayohat tarixi bo'yicha maxsus takliflarni ishlab chiqish mumkin.

5. Xizmatlarni avtomatlashtirish – avtomatlashtirilgan xizmatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatish tizimi turizm sohasini rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar nafaqat turizm, balki iqtisodiyotning boshqa sektorlarida ham muhim rol o'ynaydi. Ularning qo'llanilishining asosiy sababi turizm ishtirokchilari uchun yetarlicha qulayliklar yaratish, turistik operatsiyalar sifatini oshirish va raqobatbardosh bozor sharoitini yaratishdan iborat.

Innovatsiyalar yangi turlarni ishlab chiqish, mijozlarning xohish va istagidan kelib chiqish takliflar yaratish va turdan taassurotni yaxshilashga bevosita hissa qo'shadi.

Birinchi navbatda, sayyohlarda turdan qoladigan taassurotlarni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar sayyohlarga turni qulayroq va ta'sirliroq o'tishiga yordam beradi. Ikkinchidan, tabiiy va madaniy resurslarni muhofaza qilish va samarali boshqarish uchun ekologik/yashil texnologiyalar va turizm modellarini qo'llash lozim.

Umuman olganda, innovatsion texnologiyalar Respublikamiz mehmondo'stlik sanoati uchun istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi. Mutaxassislar ulardan zamonaviy va jozibador turistik takliflarni yaratish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish va turistik taassurot sifatini yaxshilashda foydalanishlari mumkin.

¹⁰² Muallif ishlanmasi

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Astanakulov O., Soxibova M. (2023). Turizm sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 5, October 2023*. ISSN: 2181-1016

Астанакулов О., & Сохибова, М. (2023). Халқаро туристик хизматларнинг ривожланиши динамикаси ва тенденцияларининг таҳлили. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(5), 346–353. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/%x

Астанакулов, О.Т. (2024). Туризм 4.0: туризм индустриясида рақамли технологияларни ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари. *Science and innovation*, 3(Special Issue 28), 662-667.

Bekmuradova, Laylo. (2024) "Инновационные технологии в индустрии гостеприимства: перспективы и реализация в узбекистане." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 2.4: 329-340.

Cró, Susana, and António Miguel Martins. (2020) "Foreign Direct Investment in the tourism sector: The case of France." *Tourism Management Perspectives* 33: 100614.

Ergashev, R.X., Akchurina A.M. Turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish yo'llari. *Gospodarka i Innowacje*. 24 (2022): 253-258.

Jabborova, Zuhra. Turizmدا innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. *Innovatsion texnologiyalar* 50.02 (2023): 145-149.

Romer, Paul M. (1990) "Endogenous technological change." *Journal of political Economy* 98.5, Part 2: S71-S102.

Sadulayevich, Qutlimurotov Fayzullo. "Turizmدا innovatsiyalarning o'rni va ularning turizm faoliyatiga ta'siri." *World scientific research journal* 24.1 (2024): 19-24.

Schumpeter, Joseph A. (2013) *Capitalism, socialism and democracy*. routledge.

Sheldon, Pauline J. (2020) "Designing tourism experiences for inner transformation." *Annals of Tourism Research* 83: 102935.

Tuxliyev, Nurislom. (2023) "Tourism development model in uzbekistan and its specific characteristics." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3: 73-78.